


II xalqaro baxshichilik san'ati festivalining g'oliblari aniqlandi



Nukus shahrida II xalqaro baxshichilik san'ati festivali g'oliblarini taqdirlashga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Nukus shu kunlarda yanada tarovatli ko'rinishga kirgan. Taqdirlash marosimi munosabati bilan tadbir o'tadigan sahna tantanavor, bayramona ko'rinishda.

Chorlov musiqasi yangraydi. Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini madh etuvchi musiqa sadosi ostida sahnaga boshlovchilar chiqib kelishadi.

Mamlakatimizda milliy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. O'zbekiston Republikasi Prezidentining 2021 yil 10 apreldagi «II xalqaro baxshichilik san'ati festivaliga tayyorgarlik ko'rish va baxshichilik san'atini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori buning yana bir yorqin misolidir. Unga asosan yurtimizda ikkinchi marotaba o'tkazilayotgan mazkur festival ham o'z yakuniga yetdi.

Mazkur festival dunyo xalqlarining baxshichilik san'ati, madaniyati an'analarini asrab-avaylash va targ'ib etish, tili, dini, millatidan qat'iy nazar, barcha xalqlarni san'at orqali yaqinlashtirish va ular o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, YUNESKO, AYSESKO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar shafeligidagi o'tkazilib kelinayotgan yirik xalqaro festivallardan biriga aylandi. Unda dunyo taronalari yangramoqda.

Xalqaro festival tadbirlarida sayyoramizning turli qit'alaridan 60 dan ortiq davlat, ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari ishtiroy etgani ham shundan dalolat beradi.

Shu kunlarda dunyo baxshichilik san'atining bosh sahnasiga aylangan Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahri aksariyat davlatlarning diqqat-e'tiborida desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, xalqaro tanloving hay'at raisi, IOV Xalqaro folklor tashkilotining Osiyo mintaqasi bo'yicha direktori, doktor Mun Xyung Suk O'zbekistonda baxshichilik san'atini ravnaq toptirish masalasi mamlakat yetakchisi Shavkat Mirziyoyevning e'tiborida ekanini ta'kidlab, Nukusda bo'lib o'tgan II xalqaro baxshichilik san'ati festivali bunga yaqqol misol bo'lganini ta'kidladi.

II xalqaro baxshichilik san'ati festivali doirasida o'tkazilgan ko'rik-tanlovda bosh sovrin - Gran-prini Janibek Piyazov (O'zbekiston) qo'lga kiritdi.

1-o'rinn Yuliana Krivoshapkina (Rossiya, Yakutiya), yana bitta 1-o'rinn Feruz Normatov (O'zbekiston)ga berildi.

2-o'ringa Elmira Jangabergen (Qozog'iston), Mubariz Aliyev (Ozarbayjon), Aleksey Xovalyag (Rossiya, Tuva)

Gulbahor Aximbetova (O'zbekiston) kabi ijrochilar sazovor bo'lishdi.

Uchinchi o'ringa Samad Kochobayev (Qirg'iziston), "Kaukasus" guruhi (Gruziya), Xosseyin Geylan (Eron)

Baxshiqul Tog'ayev (O'zbekiston) munosib topildi.

Shuningdek, turli nominatsiya va yo'naliishlar bo'yicha ham g'olib va sovrindorlar taqdirlandi .

Jozibador kuy-qo'shiqlar yangraydi. Baxshilarning ijrosi dilga zavq va shukuh bag'ishlaydi. Darhaqiqat, tinch va osuda yurtgagina bayramlar, dostonu qo'shiqlar yarashadi.

Nazokat Usmonova, O'zA